

## **5-mavzu: "Chin va yolg`on“ she'ri (Po`lat Mo`min)**

### **Darsning maqsadi:**

- a) ta'limiylar:** o`quvchilarni she'r matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, she'rni ifodali o`qishni o`rgatish.
- b) tarbiyaviy:** o`quvchilarga har qanday vaziyatda ham rost so`zlash kerakligini, yolg`on so`zlamaslikni o`rgatish, yolg`onchilik yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tushuntirish.
- c) rivojlantiruvchi:** o`quvchilarning ifodali o`qish ko`nikma va malakalarini, mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

**Dars turi:** Yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi

**Dars metodi:** Suhbat, tushuntirish, "Aqliy hujum", "Venn" diagrammasi, savol-javob, ta'limiylar o`yinlar.

**Dars jahozi:** Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

### **Darsning borishi:**

#### **I.Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O`quvchilarni darsga hozirlash. Ma'naviyat daqiqasi o'tkazish.

#### **II.Uy vazifasini so`rash va o`tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa - "**Oyog'i osmonda bo`lgan sichqonlar**" matnini o`quvchilar ifodali o`qib, qayta hikoyalab beradilar.

#### **"Aqliy hujum"**

1.Levon kim?

2.U necha yoshda edi?

3.Levon nimadan qutilishni istadi?

4.U sichqonlarni tutish uchun nimalar sotib oldi?

5.Sichqonlar nima uchun hushidan keta boshlashdi?

#### **III.Yangi mavzu bayoni.**

Bugungi mavzu e'lon qilinadi:"Chin va yolg'on" she'ri. She'r muallifi Po`lat Mo`min haqida ma'lumot beriladi.

### Po`lat Mo`min

- Bolalarning sevimli shoiri,bola qalbining bilimdoni, dillardagini tillarga chiqarib bera olgan yetuk ijodkor - Po`lat Mo`min ko`plab noyob asarlar muallifidir. Uning "Hunardan unar","Aql qayerda bo`lar?","Oftob va odob","Endi adashmaydi","Rahmatga rahmat", "Yaxshilarga o`xshasam", "Chanoqvoy va Qovoqvoy", "Ustozlar izidan" asarlari - o`zbek bolalar adabiyoti durdonalaridir.

Yangi mavzu o`quvchilarga o`qituvchi tomonidan ifodali o`qib beriladi.  
Mazmuni tushuntiriladi.

#### Lug`at ishi:

**Chin** – rost

**G`ov** – to`sinq

"Chin va yolg'on" she'ri o`quvchilarga zanjir usulida o`qitiladi.

#### IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.

##### Savollar:

- 1.Rost va yolg'on so`z deganda nimani tushunasiz?
- 2.Nima uchun yolg'on so`zlovchi ich-etini yeb yuradi?
- 3.Alisher Navoiyning quyidagi misralarini qanday tushundingiz?

**"So`zda ,Navoiy,ne desang chin degil,**

***Rost navo nag`mag`a tahsin degil."***


- 4.She'rda rost so`z nima uchun quyoshning nuriga o`xshatilyapti?
- 5.She'rning mazmunini aytib bering.

**"Maqollar zanjiri" mashqi.** O'quvchilar maqollarni o'qiydilar va mazmunini izohlaydilar.

**"Topib o'qi!" mashqi.** Sho'ir she'rda Chin so'zlovchini qanday ta'riflaganini topib o'qing.

### Mashq daftар bilan ishslash

**1-topshiriq.** Chin va yolg'onning o'xshash va farqli tomonlarini yozing.



**2-topshiriq.** She'rdan chin so'z quyoshning nuriga qiyoslangan misralarni ko`chirib yozing.

Chin – quyoshning nuriga o'xshar,

Uning bilan hamma yoq yashnar.

**3-topshiriq.** "Chin va yolg'on" she'ridagi qofiyadosh so'zlarni yozing.

Ikkov – g`ov, to`ldirib – ko`pirib, deb – yeb,

chizar – izlar,chog` etar – chalg`itar,

Chin –lochin, o'xshar – yashnar,havodir –qodir,do`st-kam-u ko`st,

Yolg`on –makon.

**4-topshiriq.** "Yolg'onchilikning oqibati" mavzusida kichik hikoya tuzing va yozing. O'quvchilar mustaqil bajaradilar.

## **V. Darsni yakunlash va o`quvchilarni baholash.**

### **Savol-javob o`tkaziladi.**

She`rdagi qaysi misra sizga ko`proq yoqdi?

Darsda faol qatnashgan o`quvchilar baholab, rag`batlantiriladi.

**VI.Uyga vazifa berish.** She`rni ifodali o`qing.

### **6-mavzu: Bo`lim yuzasidan takrorlash**

#### **Darsning maqsadi:**

**a)ta`limiy:** o`tilgan bo`lim yuzasidan o`quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, mustaqil fikrlashga o`rgatish.

**b)tarbiyaviy:** o`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, rostgo`y va to`griso`z bo`lishga o`rgatish.

**c)rivojlantiruvchi:** o`quvchilarning ifodali o`qish ko`nikma va malakalarini rivojlantirish, og`zaki va yozma nutqini o`stirish.

**Dars turi:** Bilimlarni mustahkamlovchi dars

**Dars metodi:** Suhbat, tushuntirish, "Maqollar zanjiri", "Yosh aktyor" ta`limiy o`yinlari.

**Dars jihizi:** Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

#### **Darsning borishi:**

### **I.Tashkiliy qism.**

Salomlashish. O`quvchilarni darsga hozirlash. Ma`naviyat daqiqasi o`tkazish.

### **II.Uy vazifasini so`rash va o`tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – "**Chin va yolg`on**" she`rini o`quvchilar ifodali o`qib,mazmunini izohlab beradilar.

### **"Davomini top! " mashqi.**

Rostgo`ylik va yolg`onchilik haqidagi maqollarning davomini topadilar.